



Loyiha usulida o'qitishning xalqaro tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari

Suyunova Marjona Xudoyshevik qizi –

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti,
Madaniyat va san'at sohasi menejmenti magistranti

E-mail: marjonasuyunova542@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarda - Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya, AQSh va Rossiyada - loyihaviy ta'lim texnologiyasini qo'llashning milliy tajribalari tahlil qilingan. Har bir mamlakatning ta'lim tizimi kontekstida loyihaviy ta'limining o'ziga xos shakllari, davlat siyosatidagi o'rni va amaliy natijalari ko'rsatilgan. Ushbu tajribalar qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston uchun qiyosiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolaning asosiy yangiligi – xorijiy modellarning O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari va cheklovlari aniq belgilangan holda ko'rsatilishi.

Kalit so'zlar: loyihaviy ta'lim texnologiyasi, xorijiy tajriba, Finlandiya ta'lim modeli, Singapur ta'lim tizimi, qiyosiy pedagogika, O'zbekiston ta'lim islohoti, saboqlar va tavsiyalar.

Международный опыт использования метода проектов в обучении и возможности его применения в Узбекистане

Аннотация. В данной статье проанализирован национальный опыт применения технологии проектного обучения в зарубежных странах Финляндии, Сингапуре, Южной Кореи, США и России. В контексте системы образования каждой страны показаны своеобразные формы проектного обучения, его место в государственной политике и практические результаты. На основе сравнительного анализа зарубежного опыта разработаны сравнительные выводы и практические рекомендации для Узбекистана. Основная новизна статьи заключается в чётком определении возможностей и ограничений адаптации зарубежных моделей к системе образования Узбекистана.

Ключевые слова: технология проектного обучения, зарубежный опыт, финская модель образования, сингапурская система образования, сравнительная педагогика, реформа образования Узбекистана, уроки и рекомендации.

International experience in project-based learning and opportunities for its application in Uzbekistan

Annotation. This article analyzes the national experiences of applying project-based learning technology in foreign countries Finland, Singapore, South Korea, the USA and Russia. The specific forms of project-based learning in the context of each country's educational system, its place in state policy and practical results are shown. Based on a comparative analysis of foreign experiences, comparative conclusions and practical recommendations for Uzbekistan have been developed. The main novelty of the article is the clear identification of opportunities and limitations for adapting foreign models to Uzbekistan's educational system.

Keywords: project-based learning technology, foreign experience, Finnish education model, Singapore education system, comparative pedagogy, Uzbekistan education reform, lessons and recommendations.

KIRISH

Jahon ta'lim tizimida loyihaviy ta'lim texnologiyasi so'nggi o'n yilliklar mobaynida an'anaviy ta'limga muqobil sifatida keng tan olindi va ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda milliy ta'lim standartlarining ajralmas qismiga aylandi. Loyihaviy ta'limning turli milliy shakllari - AQShdagi «Project-Based Learning», Finlandiyadagi «Phenomenon-Based Learning», Singapurdagi «Applied Learning Programme» - o'quvchi mustaqilligi, ijodiy tafakkuri va muammo hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish borasida yuqori samaralar bermoqda. O'zbekiston Respublikasida ham ta'limni isloh qilish jadal amalga oshirilmoqda. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun [1], «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi» [2] va «Ta'lim va fan sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» [3] ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilagan. Biroq xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirib tatbiq etishda bir qancha ilmiy va amaliy muammolar mavjud: qaysi model eng mos keladi? Qaysi jihatlarni o'zlashtirib, qaysi jihatlardan voz kechish kerak? Bu savollarga javob izlash mazkur maqolaning asosiy maqsadi. Tolipov va Usmonboyeva ta'kidlaganidek, xorijiy pedagogik tajribalarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirmasdan, milliy sharoit va ehtiyojlarni hisobga olib moslashtirib qo'llash samarali natija beradi[4]. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada beshta yetakchi mamlakatning loyihaviy ta'lim tajribasi chuqur tahlil qilinib, O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar chiqariladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xorijiy ta'lim tizimlari va loyihaviy ta'lim texnologiyasi masalalarini o'zbek pedagogika fanida bir qancha tadqiqotchilar ko'rib chiqqan. Muslimov va Mavlonova o'quvchi mustaqilligini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalarni umumlashtirgan, biroq loyiha ta'limiga alohida e'tibor qaratilmagan[5]. Ishmuhamedov va boshqalar innovatsion ta'lim texnologiyalarini tahlil qilib, xorijiy modellarning O'zbek maktablariga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rsatgan[6]. Yuzlikayev pedagogik texnologiyalar va mahorat masalalarida xorijiy tajribaga murojaat qilgan [7]. Inomov loyihaviy ta'lim texnologiyasini O'zbekiston maktabi kontekstida o'rganib, ba'zi xorijiy yondashuvlarni tavsiya etgan, lekin mamlakatlar bo'yicha alohida tahlil qilmagan [8]. Qodirov va Toshmatov o'quvchi mustaqilligi va zamonaviy ta'lim masalalarida xorijiy modellarni eslatib o'tgan [9]. Hasanboyev va boshqalar pedagogika darsligida xorijiy ta'lim tizimlarini umumiy tarzda tavsiflab bergan [10]. Saidahmedov yangi pedagogik texnologiyalar qatorida xorijiy loyiha metodlarini ko'rib chiqqan [11]. O'zbek pedagogika fanida xorijiy loyiha ta'lim tajribalarini mamlakatlar kesimida chuqur va qiyosiy tarzda o'rganib, O'zbekiston uchun aniq tavsiyalar chiqaruvchi

maxsus tadqiqot mavjud emas. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirish maqsadida yozilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Finlandiya: fenomen-asosida ta'lim modeli. Finlandiya dunyo ta'lim tizimlari reyingida doimiy ravishda yuqori o'rinlarni egallaydi va uning ta'lim modeli global miqyosda o'rganishga loyiq namuna hisoblanadi. Finlandiya milliy ta'lim agentligi 2014-yilgi yangilangan o'quv dasturida "Fenomen-asosida o'qitish" kontsepsiyasini barcha umumta'lim maktablariga majburiy joriy etdi [12]. Bu yondashuv an'anaviy fan chegaralarini buzib, turli fanlar doirasida real hayotiy hodisalar - iqlim o'zgarishi, shahar rivojlanishi, sog'lom turmush tarzini o'quvchilar birgalikda o'rganiladigan loyiha formatida tashkil etishni ko'zda tutadi. Finlandiya modelining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat. Birinchidan, o'qituvchi yuqori darajada mustaqillikka ega. U o'quv dasturini ijodiy tarzda moslashtirib, o'zi loyiha mavzusini tanlaydi. Bu imkoniyat Finlandiyada o'qituvchilar magistr darajasida tayyorlanishi va kasbiy jihatdan yuqori ishonch tizimi bilan bog'liq. Ikkinchidan, o'quvchi baholanishida imtihon va testlarga minimal tayaniladi. Loyiha natijalari, portfel va o'z-o'zini baholash ustuvor. Uchinchidan, o'quvchi o'z qiziqishlariga ko'ra loyiha mavzusini tanlashda ishtirok etadi, u ichki motivatsiyani keskin oshiradi. To'rtinchidan, ko'p fanli loyihalar orqali o'quvchi bilimlarning bir-biri bilan bog'liqligini anglaydi. Finlandiya modelidan O'zbekiston uchun muhim tavsiyalar: birinchi tavsiya - o'qituvchi tayyorgarligi hal qiluvchi. Loyihaviy ta'limni samarali tashkil etish uchun o'qituvchi yuqori kasbiy malakaga ega bo'lishi, fasilitator rolini o'ynashga tayyor bo'lishi kerak. Ikkinchi tavsiya - imtihon bosimi kamaytirilsa, o'quvchi mustaqil o'rganishga ko'proq e'tibor beradi. Uchinchisi tavsiya - ko'p fanli loyihalar o'quvchida tizimli fikrlashni rivojlantiradi. Karimova ta'kidlaganidek, o'quvchida faqat bir fanga oid bilim emas, balki fanlararo bog'liqlikni ko'ra bilish qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim maqsadi [13].

Singapur: "Amaliy o'qitish dasturi" va davlat strategiyasi. Singapur kichik shahar-davlat bo'lishiga qaramasdan, xalqaro ta'lim baholash testlarida - PISA, TIMSS - doimiy ravishda birinchi o'rinlarda turadi. Singapur Ta'lim vazirligi 21-asr kompetensiyalari konsepsiyasini ishlab chiqib, loyiha asosidagi ta'limni barcha maktablar uchun majburiy metodologiya sifatida belgilagan [14]. «Applied Learning Programme» Amaliy O'qitish Dasturi - doirasida har bir o'quvchi yilida kamida bitta yirik amaliy loyiha ustida ishlashi shart. Singapur modelining o'ziga xosligi loyihalar real sanoat va jamiyat muammolari bilan bog'liqligi. O'quvchilar loyihalarida haqiqiy kompaniyalar, davlat tashkilotlari va jamoatchilik vakillari bilan hamkorlik qiladi. Masalan, iqtisodiyot yo'nalishidagi o'quvchilar mahalliy tadbirkorlar bilan birgalikda biznes-reja ishlab chiqadi; ekologiya yo'nalishidagi o'quvchilar davlat muassasalari bilan birgalikda shahar yashilligi loyihasida qatnashadi; texnologiya yo'nalishidagi o'quvchilar IT kompaniyalari bilan dasturiy mahsulot yaratadi. Bu "haqiqiy dunyo tajribasi" o'quvchida professional ko'nikmalarni maktab davridan shakllantirishga xizmat qiladi. Singapur modelining yana bir muhim jihati - "Design Thinking" metodologiyasi. O'quvchilar loyiha ustida ishlashda besh bosqichni o'taydi: foydalanuvchi ehtiyojini tushunish, muammo aniqlash, g'oya ishlab chiqish, prototip yaratish va sinov. Bu metodologiya o'quvchida foydalanuvchi markazidagi yondashuv ko'nikmasini rivojlantiradi. Ishmuhammedov va boshqalar ta'kidlaganidek, zamonaviy ta'lim o'quvchini faqat bilim egasi emas, balki muammo hal qiluvchi sifatida tayyorlashi kerak [6].

Janubiy Koreya: ijodiy faoliyat va texnologik integratsiya. Janubiy Koreya ta'lim tizimi yuqori akademik natijalar bilan ajralib turadi. 2015-yilgi yangilangan milliy o'quv dasturida «Ijodiy Tajriba Faoliyati» barcha o'quvchilar uchun majburiy kiritildi [15]. Ushbu dastur doirasida o'quvchilar uchta yo'nalishda loyiha va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadi: o'z-o'zini rivojlantirish faoliyati (sport, san'at, bo'sh vaqt), klub faoliyati (qiziqishlar bo'yicha guruhlar) va jamiyatga xizmat faoliyati (mahalla va jamiyat uchun loyihalar). Janubiy Koreya modelining o'ziga xos jihati raqamli texnologiyalar bilan chuqur

integratsiya. "Smart Education" strategiyasi doirasida loyihaviy ta'lim raqamli vositalar planshetlar, onlayn hamkorlik platformalari, sun'iy intellekt yordamchilari bilan boyitilgan. O'quvchilar loyiha jarayonida raqamli ma'lumotlar bazasidan foydalanib, onlayn ekspertlar bilan muloqot qilib va raqamli mahsulotlar yaratib ishlaydi. Bu yondashuv o'quvchida bir vaqtda loyiha ko'nikmalari va raqamli savodxonlikni rivojlantiradi. Yuzlikayev ta'kidlaganidek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar raqamli vositalar bilan birlashtirilib qo'llanganda eng yuqori samaraga erishiladi. Janubiy Koreya tajribasidan O'zbekiston uchun amaliy saboq: loyiha ta'limini raqamlashtirishga intilish zarur. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi ta'limni raqamlashtirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilagan [16]. Bu ikki yo'nalish loyihaviy ta'limni va raqamlashtirishni birlashtirish O'zbekiston maktablarida yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin: onlayn loyiha platformalar, virtual hamkorlik vositalari va raqamli baholash tizimlari.

Amerika Qo'shma Shtatlari: PBL standartlashtirilgan modeli. Amerika Qo'shma Shtatlarida loyiha asosidagi ta'lim eng tizimli va standartlashtirilgan shaklda rivojlangan. "Buck Institute for Education" hozir "PBLWorks" nomini olgan tashkiloti 1987-yildan beri loyiha ta'limini ilmiy-metodologik jihatdan rivojlantirib kelmoqda [17]. BIE ning "Gold Standard PBL" modeli sakkizta asosiy element asosida qurilgan: qiziqarli muammo, izlanish, haqiqiylik, o'quvchi ovozi va tanlov, refleksiya, tanqid va qayta ko'rib chiqish, ommaviy taqdimot va asosiy bilim va ko'nikmalar. AQSh modelining kuchli jihati ta'lim standartlari bilan bog'liqligi. Loyiha topshiriqlari o'quv dasturidagi aniq standartlarni qamrab oladi - ya'ni o'quvchi loyiha ustida ishlash orqali majburiy bilim va ko'nikmalarni egallaydi. Bu standartlashtirilgan yondashuv o'qituvchi va ma'muriyat uchun loyiha ta'limini baholash va hisobot berishni osonlashtiradi. Saidahmedov ta'kidlaganidek, pedagogik texnologiyaning ta'lim standartlari bilan bog'liqligi uning tizimli va barqaror qo'llanilishini ta'minlaydi [11]. AQSh tajribasidan O'zbekiston uchun asosiy tavsiya: loyiha ta'limini davlat ta'lim standartlari bilan bog'lash. O'zbek maktablarida loyihaviy ta'limni joriy etishda ham o'quv dasturining aniq mavzularini qamrab olishi zarur - aks holda o'qituvchilar vaqt tanqisligi sababli loyiha ta'limini qo'llashdan voz kechadi. Xalq ta'limi vazirligi ta'lim standartlariga loyihaviy ta'lim natijalarini kiritish bu muammoni hal etishi mumkin [18].

Rossiya: Loyiha metodi va nazariy maktab. Rossiyada loyihaviy ta'lim texnologiyasiga ilmiy qiziqish 1990-yillar oxirida qayta uyg'onib, muhim nazariy va amaliy maktab shakllandi. Bu sohadagi eng muhim hissa Polat tomonidan kiritildi - u loyihaviy metodni zamonaviy rus maktabiga moslashtirib, turli fanlar uchun tatbiq etish yo'llarini ko'rsatdi va bir qancha o'quv-uslubiy qo'llanmalar nashr etdi [19]. Xutorskiy loyiha ta'limini evristik ta'lim kontseptsiyasi bilan bog'lab, o'quvchi ijodkorligini rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida ta'rifladi [20]. Rossiya modelida loyiha bosqichlari batafsil tavsiflanib, o'qituvchi va o'quvchi rollari aniq ko'rsatilgan. Loyiha turlari - tadqiqot, ijodiy, amaliy, axborot va rol-o'yin loyihalari bo'yicha tasnif ham keng qo'llaniladi. Rossiya tajribasining O'zbekiston uchun ahamiyati shundaki, ikkala mamlakat ta'lim tizimida ko'p o'xshashliklar mavjud: dars tizimi, fan bo'yicha o'qituvchi tizimi, sinf va dars tashkil etilishi. Bu o'xshashliklar Rossiya metodologiyasini o'zbek maktabiga moslashtirishni nisbatan osonlashtiradi. Muslimov va Mavlonova ta'kidlaganidek, yaqin ta'lim an'anasiga ega mamlakatlar tajribasini o'rganish va moslashtirib qo'llash yanada samarali natija beradi [5]. Biroq Rossiya modelidagi cheklovlar ham mavjud: baholash mezonlari yetarlicha tizimli emas; o'quvchi mustaqillik darajasini o'lchash mexanizmi zaif; va modelning hamma fan uchun universal qo'llanilishi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu cheklovlar LIR modelini yaratishda hisobga olinib, ularning yechimi taklif etilgan.

Besh mamlakatdagi loyihaviy ta'lim tajribasining qiyosiy tahlili

Yuqorida ko'rib chiqilgan besh mamlakatning loyihaviy ta'lim tajribasini quyidagi jadval orqali qiyosiy tahlil qilish mumkin.

1-jadval.

Xorijiy mamlakatlarda loyiha ta'lim tajribasining qiyosiy tahlili

Ko'rsatkich	Finlandiya	Singapur	J. Koreya	AQSh	Rossiya
Milliy dastur nomi	Fenomen-asosida ta'lim	Applied Learning Programme	Creative Experience Activities	Gold Standard PBL	Loyiha metodi (Polat)
Joriy etilgan yil	2014	2010	2015	1987+	1990-lar
Majburiyligi	Majburiy	Majburiy	Majburiy	Tavsiya etilgan	Tavsiya etilgan
Ko'p fanlilik	Ha	Qisman	Ha	Qisman	Qisman
Real hamkorlik	O'rtacha	Kuchli	Kuchli	O'rtacha	Zaif
Raqamli integratsiya	O'rtacha	Kuchli	Juda kuchli	Kuchli	Zaif
Baholash tizimi	Portfel asosida	Rubrika	Ko'p mezonli	Standart bog'liq	Zaif
O'qituvchi tayyorligi	Magistr darajasi	Yuqori	Yuqori	O'rta	O'rta

Yuqori natija bergan mamlakatlar - Finlandiya, Singapurda loyihaviy ta'lim majburiy va tizimli tarzda joriy etilgan. O'qituvchilar yuqori darajada tayyorlangan. Baholash tizimi aniq va shaffof. Raqamli texnologiyalar loyiha jarayoniga organik integratsiya qilingan. Bu to'rtta omil O'zbekiston uchun ham asosiy yo'nalish bo'lishi zarur.

Xorijiy tajribalardan O'zbekiston uchun asosiy saboqlar

Besh mamlakatning loyihaviy ta'lim tajribasini chuqur o'rganish asosida O'zbekiston uchun quyidagi asosiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchi tavsiya - tizimlilik zarur. Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, loyihaviy ta'lim alohida o'qituvchilar tashabbusida emas, balki davlat siyosati darajasida tizimli joriy etilgandagina samarali natija beradi. O'zbekistonda loyihaviy ta'lim hozircha ko'pchilik maktablarda o'qituvchilarning shaxsiy tashabbusiga bog'liq. Xalq ta'limi vazirligi darajasida loyihaviy ta'limni milliy o'quv dasturlariga majburiy kiritish zarur [18]. Ishmuhammedov va boshqalar ta'kidlaganidek, innovatsion texnologiyalarning muvaffaqiyatli tatbiqi davlat qo'llovi va tizimli yondashuvni talab qiladi[6].

Ikkinchi tavsiya - o'qituvchi tayyorgarligi katta omil. Finlandiya tajribasi ayniqsa ta'sirchan: magistr darajasida tayyorlangan o'qituvchilar fasilitator rolini tabiiy tarzda o'ynaydi. O'zbekistonda o'qituvchilar tayyorlash tizimida loyiha ta'limi metodologiyasini alohida kurs sifatida kiritish va mavjud o'qituvchilar uchun maxsus qayta tayyorlash kurslari tashkil etish zarur. Tolipov va Usmonboyeva ta'kidlaganidek, pedagogik texnologiyani samarali qo'llash uchun o'qituvchi nafaqat uning mazmunini, balki metodologiyasini ham chuqur o'zlashtirishi kerak[4]. Uchinchi tavsiya - real hayotiy muammolar bilan bog'lash. Singapur va AQSh tajribasi ko'rsatadiki, loyiha topshiriqlari haqiqiy kompaniyalar, mahalla tashkilotlari yoki davlat muassasalari bilan bog'liq bo'lganda o'quvchi qiziqishi va motivatsiyasi keskin oshadi. O'zbekiston maktablarida ham mahalliy korxonalar, madaniyat muassasalari, qishloq xo'jaligi tashkilotlari bilan hamkorlikda amaliy loyihalar tashkil etish imkoniyatlari katta. Qodirov va Toshmatov ta'kidlaganidek, maktab va jamiyat o'rtasidagi hamkorlik o'quvchi rivojlanishining muhim omili [9]. To'rtinchi tavsiya - raqamli texnologiyalar bilan integratsiya. Janubiy Koreya tajribasi raqamli vositalar loyiha ta'limini yangi darajaga ko'tarishini ko'rsatdi. O'zbekistonda internet penetratsiyasining o'sishi (2023-yilga qadar 82%) raqamli loyiha vositalaridan foydalanish imkoniyatini yaratdi. Onlayn hamkorlik platformalari, raqamli ma'lumotlar to'plash vositalari va virtual taqdimot imkoniyatlari loyiha ta'limini boyitishi mumkin. Beshinchi saboq baholash tizimini kuchaytirish. Xorijiy tajribalarning barchasi AQSh dan Rossiyagacha baholash tizimining

muhimligini ko'rsatdi. O'zbekistonda loyiha ta'limini tatbiq etishda aniq mezonlar va rubrikalar zarur aks holda o'qituvchilar loyihani subyektiv baholashga majbur bo'ladi. Hasanboyev va boshqalar ta'kidlaganidek, obyektiv baholash o'quvchining o'rganish jarayonidagi eng kuchli motivatsion vositalaridan biri [10].

XULOSA

Ushbu maqolada Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya, AQSh va Rossiyaning loyihaviy ta'lim tajribalari chuqur va qiyosiy tarzda tahlil qilindi. Tahlil quyidagi umumiy xulosalarga olib keldi. Loyihaviy ta'lim faqat tizimli va davlat siyosati darajasida qo'llanganda yuqori natijalar beradi. Alohida o'qituvchilar tashabbusi kuchli bo'lsa ham, milliy miqyosdagi o'zgarish uchun davlat strategiyasi zarur. Finlandiya modeli sifatiga, Singapur modeli amaliylikka, Janubiy Koreya modeli raqamli integratsiyaga, AQSh modeli standartlashtirishga, Rossiya modeli nazariy ishlab chiqishga urg'u beradi. O'zbekiston uchun eng maqbul yondashuv bu besh modelning eng kuchli jihatlarini birlashtirish. O'zbekiston uchun moslashtirilgan loyihaviy ta'lim modeli yaratishda to'rtta o'zbek maktabiga xos shart hisobga olinishi zarur: dars tizimi (55 daqiqalik dars); fan bo'yicha o'qituvchi tizimi (bitta o'qituvchi bir fan o'qitadi); o'quv dasturining to'yinganligi (fan soni va hajmi katta); va o'qituvchilar tayyorgarligi darajasi. Aynan shu shart-sharoitlar inobatga olinib yaratilgan LIR modeli O'zbekiston maktablariga eng mos keluvchi model hisoblanadi. Tavsiyalar: Xalq ta'limi vazirligi loyiha ta'limini milliy ta'lim standartlarida mustaqil metod sifatida belgilasin; ikkinchi - pedagog kadrlarni qayta tayyorlash institutlari loyiha ta'limi bo'yicha maxsus kurslar joriy etsin; uchinchi - maktablar mahalliy korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy loyihalar tashkil etsin; to'rtinchi - loyihaviy ta'limni raqamli vositalar bilan boyitish uchun zaruriy infratuzilma yaratilsin; beshinchi - loyiha ta'limida baholash mezonlari va rubrikalar tizimini milliy darajada standartlashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, №637-I. – Toshkent, 2020. – Lex.uz: <https://lex.uz/docs/5013009>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida». – Lex.uz: <https://lex.uz/docs/5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-apreldagi PF-6097-son Farmoni «Ta'lim va fan sohasini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi». – Lex.uz: <https://lex.uz/docs/5440039>
4. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2005. – 232 b.
5. Muslimov N.A., Mavlonova R.A. O'quvchilar mustaqilligini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – 180 b.
6. Ishmuhamedov R., Yusupov A., Abduqodirov A. Innovatsion texnologiyalar — ta'lim sifati kafolati. – Toshkent: TDPU, 2009. – 180 b.
7. Yuzlikayev G.R. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Moliya, 2009. – 272 b.
8. Inomov M. Loyiha ta'lim texnologiyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Akademiya, 2020. – 186 b.
9. Qodirov B., Toshmatov N. O'quvchi mustaqilligi va zamonaviy ta'lim. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 158 b.
10. Hasanboyev J., Xasanov O., G'ulomov M. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. – 416 b.
11. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya nashriyoti, 2003. – 171 b.
12. Ishqobilov U. Finlandiya ta'lim tizimi va O'zbekiston uchun saboqlar // Xalq ta'limi. – 2020. – №2. – B. 38–44.